“O‘zkimyosanoat” AJda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuniga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazildi

// 09 December 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-xalqaro-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-ku



9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi.

Ushbu tadbir jamiyat faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, aholini sohaga oid yangiliklar bilan tanishtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida o‘tkazildi.



Tadbirda ommaviy axborot vositalari xodimlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mas’ul mutaxassislari, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan yoshlar ishtirok etishdi.

Ularga jamiyat va tarmoq korxonalarining asosiy vazifalari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlantirish strategiyasi haqida atroflicha ma’lumotlar taqdim etildi.



Jumladan, tadbir davomida “O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borayotgan ishlari, ichki nazorat tizimi, xavflarni baholash mexanizmlari, xodimlar uchun o‘tkaziladigan o‘quv-seminarlar va profilaktik chora-tadbirlar haqida ham batafsil so‘zlab berildi.



Shuningdek, joriy yilda “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar “Maxam-Chirchiq” AJ va “O‘zkimyoimpeks” MCHJlar “CERT International” Akademiyasi tomonidan auditdan qayta o‘tkazilib, yana ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatiga munosib deb topildi.

Tadbir ishtirokchilari korrupsiyaning nafaqat mamlakat taraqqiyoti, balki har bir fuqaro xavfsizligi, jamoadagi psixologik muhit va mehnat intizomiga ta’siri haqida ham batafsil ma’lumot olishdi.



Uchrashuv yakunida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Mutaxassislar tomonidan barcha savollarga atroflicha va asosli javoblar berildi.


“MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDA”GI QONUN
Qonunning maqsadi:
Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat
Qonunning amal qilish sohasi:
davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassalari;
davlat unitar korxonalari;
o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar (davlat xaridlari sohasidagi munosabatlari).


“MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDA”GI QONUN
Qonunning maqsadi:
Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat
Qonunning amal qilish sohasi:
davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassalari;
davlat unitar korxonalari;
o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar (davlat xaridlari sohasidagi munosabatlari).






TO'RTIN
Xodimlar
kurashishga
xabardorligi
ko'nikma
tadbirlarn